

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 8 Jild 4  
**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 8 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) .....	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ .....	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ .....	26-30
<i>Rustamov Ilxomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI) .....	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI .....	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI .....	40-44
<i>Xamidova Shoiras Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI .....	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА .....	52-54

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALOHİYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI .....	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ .....	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI .....	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	87-93

*Donayev Sheroli Burxonovich*

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI ..... 94-101

*Кахаров Жасур Абулқосимович*

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 102-109

*Рахмонов Шухрат Шавкатович*

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ..... 110-117

*Sherov Alisher Bakberganovich*

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 118-129

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI***Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna*

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOYIY-

AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI ..... 130-135

*Muhamedov Asror*

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR ..... 136-145

*Aripova Zulfiyaxon Salijanovna*

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI ..... 146-151

*Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich*

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI ..... 152-156

*Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich*

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK

VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI ..... 157-162

*Шоназаров Жамшид Шухратович*

ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ ..... 163-168

*Ho'janova Tamara Jo'raevna*

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI ..... 169-174

*Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li*

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH ..... 175-179

*Muxtorova Tutixon*

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI ..... 180-186

*Rahmonova Mavluda Abdusamadovna*

ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI ..... 187-194

*Pirnazarov Nurnazar*

TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING

FALSAFIY TAHLILI..... 195-201

*Ismailov Dilshod Baxriddinovich*

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING

MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV ..... 202-209

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna*

RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI

TALQINI ..... 210-216

*Bozorbekov Ahmadbek*

O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI

TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI ..... 217-230

*Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich*

ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA

MANBALARIDAN FOYDALANISH ..... 231-236

*O'tebaeva Dilbar*

TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR ..... 237-242

*Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna*

EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI

(“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA) ..... 243-247

*Kadirova Zaynab Bakoyevna*

INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ..... 248-252

*Allaberganova Nilufar Matnazar qizi*

QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI ..... 253-256

*Nabiyeva Rushana Jamol qizi*

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY

GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA ..... 257-262

*To'rayeva Iroda Sheramatovna*

FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA

SPETSIFIKASI ..... 263-268

*Qodirova Munisa Erkinjon qizi*

BADIIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI

(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) ..... 269-272

*G'aniyeva Nozanin G'ayratovna*

MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA

MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI ..... 273-277

*Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna*

TURKIY ADABIYOTDA “IBROHIMI ADHAM” QISSALARI TAHLILI ..... 278-284

*Eshniyazova Maysara Becnazarovna*

ALISHER NAVOIYNING “ARBA'IN” ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIIY

IFODA MUKAMMALLIGI ..... 285-292

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*

O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI ..... 293-298



**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH

JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI ..... 299-306

*Узакова Гўзал Шариповна*

ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА

ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ ..... 307-325

*Пулатова Нодирахон Собиржоновна*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ

ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ..... 326-332

*Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*

MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI

HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 333-341

*Абдурахманова Нодирахон*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В

ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ..... 342-345

*Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*

TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI ..... 346-356

*Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI ..... 357-368

*Утанов Фурқат*

ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ

МАҚОМИ ..... 369-374

*Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*

XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH

TENDENSIYASI ..... 375-381

*Назарова Марҳабо*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В

УЗБЕКИСТАНЕ ..... 382-386

*Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*

ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ

МАСАЛАЛАРИ ..... 387-400

*Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*

ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ

МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406

*Abdikhakimov Islombek*

LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS ..... 407-412

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*

TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK

YONDASHUVLARNING ROLI ..... 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI .....	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI .....	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELITIRUVCHI OMILLAR .....	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА .....	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

**Received:** 30 July 2024  
**Accepted:** 5 August 2024  
**Published:** 15 August 2024

*Article / Original Paper*

## **PERFECTION OF IDEOLOGICAL AND ARTISTIC EXPRESSION IN THE NARRATION OF HADITHS IN ALISHER NAVOI'S WORK "ARBA'IN"**

**Eshniyazova Maisara Beknazarovna,**  
Samarkand State University, independent researcher  
E-mail: [maysaraeshniyazova300477@gmail.com](mailto:maysaraeshniyazova300477@gmail.com)

**Abstract.** Alisher Navoi, with his rich literary heritage and generous morals, is a figure of special attention not only among the Turkic peoples, but also among the entire humanity. Nizamiddin Mir Alisher is a great scholar who propagated the idea of a perfect human being in the core of all his works and painted his image and character. The same can be said about the religious and mystical works of the author. The hadiths, which are the source for Hazrat Nawai's work "Arba'in", are primarily aimed at the education of a perfect human personality, the main idea characteristic of the entire work of the thinker according to its content and essence. , the Sunnat, which speaks about the criteria of humanity, is the Prophet. In "Arba'in" the author does not give the exact text of the hadiths, not the sanad part, but only the text, he does not give the exact Turkish translation in the poem, but he tries to interpret the meaning and essence of each hadith, to artistically reveal the meaning of knowledge and wisdom in it, and to present it to the reader. tries to fly. Therefore, the text of hadiths is reflected in different forms in poetic fragments, but the poet skillfully achieves a harmony of form and content in each continent, so that as a result, the content of the hadith is not damaged, on the contrary, its essence is revealed more deeply, its meaning is brighter. becomes clearer, more deeply understood, the effectiveness increases several times. This article analyzes several examples of this process.

**Key words:** hadith, verse, content, poetic expression, artistic idea, scientific wisdom, form, meaning, harmony.

## **ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIIY IFODA MUKAMMALLIGI**

**Eshniyazova Maysara Beknazarovna,**  
Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Alisher Navoiy o'zining boy adabiy merosi hamda karim axloqi bilan nafaqat turkiy xalqlar, balki umuminsoniyat orasida alohida e'tiborga molik bo'lgan siymo hisoblanadi. Nizomiddin Mir Alisher — barcha asarlarining tub magzida komil inson g'oyasini targ'ib qilgan, uning surati-yu siyratini chizib bergan ulkan alloma. Muallifning diniy-irfoniy asarlari haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Hazrat Navoiyning "Arba'in" asari uchun manba bo'lgan hadislar, avvalo, mazmun-mohiyatiga ko'ra mutafakkirning butun ijodiga xos bo'lgan bosh g'oya — komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, mo'minlik, musulmlik shartlari, insoniylik mezonlari haqida so'z yurituvchi sunnati nabaviydir. Muallif "Arba'in"da hadislarining sanad qismini emas, faqat matnini aslyatda keltirgach, nazmda uning aynan turkiy tarjimasini bermaydi, balki har bir hadisning mazmun-mohiyatini sharhlashga, san'atkorlik bilan undagi ilm-u hikmatning ma'nosini ochib berishga, uni kitobxonga uqtirishga harakat qiladi. Shu bois hadislarining matni she'riy parchalarda turlicha ko'rinishlarda aks etadi, lekin shoir har bir qit'ada ustalik bilan shakl va mazmun uyg'unligiga erishadiki, natijada hadisning mazmuniga putur yetmaydi, aksincha, uning mohiyati yanada chuqurroq ochiladi, ma'nosi yorqinroq oydinlashadi, teranroq anglashiladi, ta'sirchanlik bir necha barobar ortadi. Ushbu maqolada mazkur jarayon bir necha misollar tahlili qilingan.

**Kalit so'z va birikmalar:** hadis, nazm, qit'a, misra, bayt, mazmun, she'riy ifoda, badiiy g'oya, ilmi hikmat, shakl, ma'no, uyg'unlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N41>

**Kirish.** Alisher Navoiy o'zining boy adabiy merosi hamda karim axloqi bilan nafaqat turkiy xalqlar, balki umuminsoniyat orasida alohida e'tiborga molik bo'lgan siymo hisoblanadi. Barcha asarlarining tub mag'zida komil inson g'oyasini targ'ib qilgan, uning surati-yu siyratini chizib bergan ulkan alloma, manbalarda keltirilganidek, avvalo, o'z hayot tarzida shaxsiy namuna ko'rsata olgan zotdir. Bolaligidan islom dini, musulmon axloqi bilan ziynatlangan fe'li sajiyasi va tafakkuri keyinchalik ushbu bilim va tajribalar mutafakkirning butun ijodida markaziy mavzuga aylanishiga turtki bo'ldi. "Navoiy merosi — yaxlit bir adabiy borlik, bebaho ma'naviy xazina. Va yana muhimi shundaki, shoirning o'lmas gumanizm bilan ko'kargan hayotbaxsh g'oyalari «dunyoviy» asarlarida qanday porlab tursa, biz bir chekkaga olib qo'ymoqchi bo'lgan «ilohiy» asarlarida ham shunday kuch bilan nur taratib turadi", - deydi navoiyshunos N.Komilov [6; B.127].

Alisher Navoiy qaysi mavzuda, qanaqa janrda qalam tebratmasin, asarlarining asl mag'zini irfoniyy-tasavvufiy g'oyalar tashkil etadi. Muallif ba'zi asarlarida bu holatni ramzlar, ishoralar orqali ifodalasa, ba'zi asarlarida diniy-tasavvufiy mavzularni to'g'ridan to'g'ri bayon qiladi. Hazratning qirq sara hadisning she'riy sharhiga bag'ishlangan "Arba'in" asari muallifning irfoni, idroki hamda hayotiy tajribasi asosida orttirgan xulosalari mushtarakligini aks ettirishi, ma'rifatullohdan saboq berishi bilan juda qadrli va ahamiyatlidir. Asosiy qismini hadislar va ularning qit'alar shaklida sharhlangan she'riy talqinlari tashkil etgan bu mo'jaz kitob shaxs tarbiyasi va kamoloti uchun dasturulamal bo'la oladigan muhim manbadir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Alisher Navoiyning "qibla-vu ustod-u pir"i, do'sti, maslakdoshi Abdurahmon Jomiy (r.a.)ning "Arba'in"i tarjimasida yaratilgan ushbu asar tarkibi jihatidan muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat bo'lib, manbasiga ko'ra, muallif e'tirof etganidek, "Buxoriy-u Muslim" (r.a.)lar rivoyat qilgan sahih hadislariga tayanilgan. "Arba'in" asarining nasriy bayoni va taxriji" maqolasi mualliflari ushbu hadislar imom Buxoriy va imom Muslimlar, shuningdek, Daylamiy, Bayhaqiy va Suyutiylarning rivoyatlarida kelganligini e'tirof etishadi [3].

Asarning asosiy qismi o'ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, navbati bilan tanlangan qirqta hadisdan har birining avval asl arabiy matni keltirilib, davomidan she'riy talqini beriladi. Hazrat Navoiy bu asarni "bir-ikki kun ehtimom et"ib, "ko'z tutardin burun tamom et"gan tarjima asar sifatida baholasa-da, uni bimalol mutafakkirning ijodiy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga kelgan erkin tarjima deb baholash mumkin. Bunga dalil sifatida ikki manbadan iqtibos keltiramiz. "Arba'in" asarining nasriy bayoni va taxrijini tayyorlagan Hasanxon va Husanxon Yahyo Majid kabi ustozlar "Muallif unda ustozi Abdurahmon Jomiy "Arba'in"ida keltirilgan hadislarining ayrimlarini olib, ayrimlari o'rniga boshqa hadislarini tanlagan"ligini e'tirof etsalar [3], adabiyotshunos M.Pulatova o'z maqolasida A.Jomiy va A.Navoiy "Arba'in"idagi farqli jihatlar haqida bir necha misollar keltiradi [5]. Ushbu maqolamizda Navoiyning tarjimachilik borasidagi xizmatlarini yoritish maqsad qilinmagani bois, yuqorida keltirilgan iqtiboslar bilan cheklanamiz.

**Natijalar.** Alisher Navoiyning "Arba'in" asari uchun manba bo'lgan hadislar, avvalo, mazmun-mohiyatiga ko'ra mutafakkirning butun ijodiga xos bo'lgan bosh g'oya — komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, mo'minlik, muslimlik shartlari, insoniylik mezonlari haqida so'z yurituvchi sunnati nabaviydir. Muallif "Arba'in"da hadislarining sanad qismini

emas, faqat matnini asliyatda keltirgach, nazmda uning aynan turkiy tarjimasini bermaydi, balki har bir hadisning mazmun-mohiyatini sharhlashga, san'atkorlik bilan undagi ilm-u hikmatning ma'nosini ochib berishga, uni kitobxonga uqtirishga harakat qiladi. Shu bois hadislarining matni she'riy parchalarda turlicha ko'rinishlarda aks etadi, lekin shoir har bir qit'ada ustalik bilan shakl va ma'no uyg'unligiga erishadiki, natijada hadisning mazmuniga putur yetmaydi, aksincha, uning mohiyati yanada chuqurroq ochiladi, teranroq anglashiladi, ta'sirchanlik bir necha barobar ortadi. Demak, Navoiyning ushbu asari ayrim ulamolarning «yetarli bilimga ega kishilar hadislarining ma'nolarini naql qilishlari mumkin» degan fikrlariga asoslangan holda yaratilgan va badiiy tafakkur talqinlari bilan uyg'unlashtirilgan nazmiy parchalardir. Qit'alarni mutolaa qilgan va ma'nosini uqqan kitobxon mutasavvif va mutafakkir Hazrat Navoiyning ilmi laduniy, ilmi manqul va ilmi ma'qulni mukammal egallaganini va o'z asarlari mazmunida mahorat bilan uyg'unlashtirganini ko'rishi shubhasiz.

**Muhokama.** Alisher Navoiy qit'alarida hadisi shariflar va she'riy talqin borasida qanday yo'l tutilganligi tadqiq qilinganda, she'riy bayon bir necha xil usullarda ifodalangani ma'lum bo'ladi. Ba'zan hadis bir yoki bir necha misralarda nazmlashtirilsa, ba'zan aynan keltirilmay, she'rning butun mazmuni hadisning mag'zini chaqishga xizmat qildirilgan. Shunga ko'ra, bu jarayonni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- hadis mazmunining butun bir qit'ada aks etishi;
- hadisning qit'aning ma'lum qismi (bayti)da aks etishi.

Hadislarining she'riy talqini butun qit'ada aks etganda ham ikki xil yo'l tutilgan: 1) aynan hadisning matni saqlashga harakat qilingan; 2) hadisning o'zi keltirilmasdan, balki uning mohiyati ochib berilgan. Bu turdagi qit'alar adadi nisbatan kam. Agar hadis matni nisbatan katta bo'lsa, bunday hadisning she'riy talqini har to'rtala misra orqali ifodalanadi, lekin ular ham muallif mulohazalaridan xoli emas. "Man a'ta lillahi va mana'a lillahi va ahabba lillahi va abg'aza lillahi faqad istakmala iymanahu" ("Kimki xayr-ehson qilishda, noo'rin joylarga sarf qilmaslikda, yaxshi odamlarni do'st va yomon odamlarni dushman tutishda faqat Allohning rizoligini niyat qilgay bo'lsa, demak, u o'z imonini butun saqlaydi"):

Kimgakim hubb-u bug'z-u man'u ato  
Haq uchun bo'ldi jazm bil oni,  
Kim erur tengri lutfidin komil  
Ahli imon qoshida imoni [1; B.587].

Ushbu qit'ada Navoiy hadisning matnini she'riy talqinda aynan ifodalashga harakat qilgan: kalimalar deyarli saqlangan. Shu bilan birga, hadisning ijtimoiy ahamiyatini va xalqchilligini oshirish, bandalikning asl maqomi bosh talabini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida uyushiq bo'laklar o'rnini o'zgartiradi (vaholanki, ular hadisdagi sanoq ketma-ketligida berilsa ham, vaznga xalal bermas edi). Demak, imoni komillik uchun "hubb"lik — bosh mezon, keyingi amallar uchun rag'bat ham aynan shu maqomdan kelib chiqar ekan. Agar banda ushbu hadisdagi ko'rsatmalarga amal qilsa, shubhasiz, Tangrining lutfiga (yaxshiligiga), ya'ni imoni komillikka erishajak. Aslida bu sinovli dunyoda insonning bosh maqsadi ham aynan shu. Unga faqat Allohning marhamati bilangina, Uni rozi qilibgina, O'zi hidoyatga boshlasagina, jism, qalb poklansagina, tandagi ruh toblansagina, o'zlik va o'zgalik orasidagi chegara yo'qolsagina, atrof-olam Tangrining tajallisi va yaratig'i deb bilingandagina, erishish mumkin. Mukammal imon masalasida "yakka shaxs"lik "men"likning ustunligi bo'lib, toki vujud, qalb, ruh undan ozod bo'lmas ekan, maqsad hosil bo'lmaydi. Demak, imoni komillik bandaning o'zigagina tegishli ish

bo'lmay, balki uning mezoni Haqning qoshida jamiyat ichida, jamiyat uchun qilingan amallar aosisda nafsni jilovlash bilan o'lchanar ekan.

Yoki boshqa bir hadis talqiniga e'tibor qarataylik: **“Lays al-g'ino an kasrat il arzi innamal-g'inan-nafsi”** (“Boylik — mol-u dunyoning ko'pligi bilan emas, balki nafsning to'qligi bilan o'lchanadi”):

Boy emas ulki, mol kasratidin  
Ko'rmagay foqa-u talab ranjin.  
Oni bilkim, xudoy bermish anga  
Nafsi ammora tarkini ganjin. [1; B.592]

Ushbu qit'ada muallif hadis matnini nafaqat saqlaydi, balki uni kengroq sharhi bilan birga ifodalashga harakat qiladi: demak, mol-dunyosi ko'pligi sababli kambag'allik va tilanish ranjini, qiyinchiligini ko'rmagan kishi boy emas. Zotan, boylik — bandalarga berilgan sinov ekanligi “Qur'oni karim”da bir necha bor marhamat qilinadi. Shunday odam boyki, Xudo unga nafsni ammorani — yomonlikka buyuruvchi nafsni tark etishdek xazinani bergan bo'lsin. Bu talqin Navoiyning nafaqat shoirlik mahoratini ko'rsaradi, balki uning mutasavvif sifatidagi qarashlarini ham belgilaydiki, tasavvuf nuqtayi nazaridan insonni komillikka erishtiruvchi darajalardan biri, eng qiyin bosqichi — nafsni jilovlash, uning ustidan g'olib kelish, qalbni poklangan nafs bilan ziynatlash hamda tanni emas, ruhni boyitish. Bunga har bir banda alohida e'tibor berishi, uning adosida jiddu jahd qilishi shart. Shu bois Navoiy she'rga aynan “shaxs” timsolini kiritib, unga alohida urg'u bilan ta'kidlab murojaat qiladi. Nafsi ammora esa nafsning shunday holatiki, unda g'olib bo'lgan kishi keyingi bosqichlarda bu “raqib” bilan kurashishda qiyinchiliklarni oson yengadi, natijada o'tkinchi dunyoning boyliklari tolibga arziyas matoh bo'lib tuyuladi, uning nazari to'q bo'ladi, havoyi istaklardan ustun chiqib, ko'ngil xazinasidagi imon va ishqni ziyoda qilishga erishadi — haqiqiy boylikka ega bo'la boshlaydi.

Hadislar aynan emas, balki uning mazmun-mohiyati aks ettirilgan qit'alarda Hazrat Navoiyning piri komil, orif zot, ma'rifatparvar, faylasuf, donishmand sifatidagi qiyofasi namoyon bo'ladi. Masalan, **“Al-ilmu la yahillu man'uh”** (“Ilmki, uni man etish halol emas”) hadisi sharhiga e'tibor beraylik:

Ey xiradmand olimeki, sanga  
Ilmdin ro'ziy ayladi Sone'.  
Kishi o'rgansa, qilmag'il mahrum  
Yoki naf' olsa, bo'lmag'il mone'. [1; B.592]

Ko'rinadiki, ushbu she'riy parchada hadis matni aynan ifodalangan misra yoki jumla mavjud emas, balki har to'rtala misrada uning mazmun-mohiyati kengroq, sharhi bilan bayon qilingan: “Ey aqlli olim! Soni' taolo senga ilmdan nasib etdi, endi biror kishi uni o'rganaman desa, uni mahrum qilma yoki undan foyda olaman degan kishini man qilma”. Hadis ilm tahsili haqida. Lekin Navoiy aynan “xiradmand olim”ga murojaat bilan she'rni boshlaydi. Qit'ada oqil olimga murojaat qilinishining hikmati nima? “Qir'oni karim”ning “Fotir” (28-oyat), “Rum” (22-oyat), “Ankabut” (43-oyat) suralarida olimlar tilga olinib, ularning hollari e'tirof etilishi bejiz emas. Undan tashqari, “bil”ish va “bilgan” va “bilmagan”lar haqida ham bir necha oyatlar nozil qilingan. Demak, bu toifa — Haqning nazarida bo'lgan zotlardir. Ilm ahli toifalari haqida bir qator hadislar ham mavjud. Masalan, “Olimlar — payg'ambarlarning merosxo'rlari, ilmi payg'ambarlardan o'rganishadi. “Kimki ilm olgan bo'lsa, payg'ambar alayhissalomdan to'liq meros olibdir”, — degan hadisda ham ilm olish kerakligi uqtirilgandir. “Kimki ilm istab qadam

qo'ysa, Olloh taolo unga jannat yo'lini oson qilg'aydir", - deyiladi boshqa hadisda", - deb keltiriladi "Al-jome' as-sahih" kitobida [4; B.19]. Olimlar ilmi hikmatning mohiyatini anglovchi, Yaratganni tanib, elga tanituvchi toifadur. Ular bevosita ilm bilan rizqlantirilgan, ularga ilmdan nasiba berilgan. Bu ne'matdan ham o'zlari istifoda qiladilar, ham o'zgalarga ulashadilar, ham o'zlarining axloqi poklanadi, ham o'zgalarning kamoloti uchun hissa qo'shadilar. Ilm tolibini bunday imkoniyatdan mahrum qilishga yoki ilmdan yetadigan nafning yo'lini to'sishga hech kim haqli emas, ayniqsa, O'z ilmdan omonat qilib berib qo'ygani — olimlar bundan qattiq ogoh bo'lishlari darkor. Zero, olim oqil bo'lishi kerak, u butun borlig'i bilan ilmga aylanishi va tolibi ilmlarga fido bo'lishi lozim. Chunki unga berilgan ilm ham aslida Haqning omonati, Yaratganning roziligisiz va inoyatisiz bu ilmni egallash mumkin emas. Ilm o'rganish har bir mo'min-musulmon uchun farz qilingan. Shu bois ilm talabida yurganlarga imkon qadar ko'mak berish, to'g'ri yo'l ko'rsatish dinda ma'qul ish sanalib, hatto berilgan ne'matga shukronalikni ifodalaydi. Aksincha bo'lishi esa olim tabiatidagi ziqnalik, xudbinlik, kibrdan dalolatki, bu tasavvufda nafsning qutqularidir. Aqlli inson har doim o'zini nafsning jilovsiz havaslaridan saqlay bilishi darkor.

Yuqorida namuna sifatida tahlilga tortilgan har uchala qit'ada ham Navoiy o'quvchiga murojaat usulini tanlaydi, ya'ni hadislarda III shaxsda keltirilgan fikrni she'rda II shaxsqa qarata bayon qiladi. Bu holat aytilayotgan hikmatning muhimligi, e'tibor talab qilishi hamda amal qilishda sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmasligini anglatadi. Shuningdek, bayonga da'vat, pand-nasihat, o'git ruhini beradi.

"Arba'in"dagi qit'alarning aksariyatida (75% ida) hadislar qit'aning ma'lum qismi (bayti yoki misrasi)da keltiriladi. Bu jarayonda ham farqli jihatlar ko'zga tashlanadi, ya'ni endi hadislar yoki shoir fikrini dalillash uchun foydalanilgan iqtibos ko'rinishida, yoki fikr manbasi yoki tezisi shaklida ifoda topadi. Bunday holatda ham hadislarning asliy matnlari emas, balki uning to'liq mazmuni shoir tilidan bayon qilinadi.

Asarda keltirilgan birinchi hadisning qit'adagi shakl va ifoda uyg'unligiga uch misra (birinchi, uchunchi va to'rtinchi) asosida erishilgan, bir (ikkinchi va qisman birinchi) misrada esa shoirning qo'shimcha izohi aks etgan: **"Lo yu'minu ahadukum hatta yahibbu la axihi ma yuhibbu li nafsihi"** ("Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsani birodariga ravo ko'rmaguncha, chin mo'min bo'lolmaydi"):

Mo'min ermastur, ulki imondin

Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,

Toki qardoshiga ravo ko'rmas —

Har nekim o'ziga ravo ko'rgay. [1; B.587]

Hadisning mazmuni Navoiy talqinida juda kuchli ta'kid va rad etib bo'lmas talab darajasiga ifoda topadi. Mo'min aslida imon keltirgan kishi, lekin kishi o'z imoni sharofatidan juda ko'p yaxshiliklar ko'rgan bo'lsa-da, u mo'min emas. Nega? Chunki chin mo'minlik faqat o'zini emas, balki birodarini ham o'ylash, o'ziga ravo ko'rganni unga ham ravo ko'rish, yaxshilikka birday erishib, yomonlikdan birday tiyilish. Aynan shu hadis mo'minning harakatlarini belgilab beruvchi asosiy yo'l xaritasidirki, Alisher Navoiy "Arba'in"da birinchi bo'lib, ushbu hadisning she'riy talqinini beradi. Hadisdagi "birodar" so'zining qit'ada "qardosh" shaklida ifoda etilishi ham bejiz emas. "Qardosh" so'zining ma'nosi kengroq bo'lib, u "do'st", "birodar", "yaqin", "aka yoki uka" [2; B.31] ma'nolarini ham bildiradiki, natijada "ravo ko'rish" maydoni kengligi yanada yorqinroq ifodalanadi. Agar ushbu hadisning hikmatini anglashga

harakat qilinsa, uning zamirida ham mo'min zimmasiga nafsni poklash, uni tarbiyalashdek vazifa yuklatilganini ilg'ash mumkin.

Qit'aning ikki misrasida manmuni aks ettirilgan hadislar yo she'rning birinchi baytida yoki ikkinchi baytida keltiriladi. "Arba'in"dagi qit'alarning kompozitsiyasini ruboiylarniki kabi tahlil qilish mumkin bo'lgan o'rinlar mavjud, ya'ni birinchi va ikkinchi — tezis, uchinchi misra — antitezis, to'rtinchi misra — sintez. Birinchi baytida keltirilgan hadislar shoir uchun tezis vazifasini o'taydi va keyingi baytda uning mohiyatini ochuvchi bayt keltiriladi. Masalan: "**Al-majolisu bil-amonati**" ("Majlislarda eshitganing — omonat") hadisi quyidagicha sharhlanadi:

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,  
Bilgil: ul so'z sanga amonatdur.  
Gar ani o'zga yerda naql etsang,  
Ul amonatg'a bu xiyonatdur. [1; B.589]

E'tibor qaratilsa, hadisning sharhi birinchi baytda tinglovchining diqqatini tortadigan shaklda nazmga solingan: baytda ham hadis, ham undan chiqadigan nasihat aks ettirilgan. Lekin Navoiy bu bilan qanoatlanmaydi, balki juda kuchli mantiq bilan amal ado etilmaganda, hadisga rioya qilinmaganda yuz beradigan fojeani qarama-qarshi qo'yish orqali xavfdan ogohlantiradi. Aynan shu joyda Navoiyning sufiyona qarashlari oydinlashadi: murid xavf maqomidan saboq oladi. Demak, majlislarda eshitilgan so'zlarni boshqa joyda gapirib yurish, ichki sirni yoyish omonatga xiyonat sanaladi. Boshqa hadislar mazmuni bilan mantiqan bog'lasak, omonatga xiyonat — munofiqlik belgisi, munofiqlar esa abadulabad ahli do'zaxdir, do'zax ahli esa Alloh vaslidan, uning jamolidan, nuridan bebahra qoluvchilardir.

Agar hadis matni kichik hajmli bo'lsa, Navoiy uni bir misralik tezis yoki antitezis sifatida bayon qilib, fikrni rivojlantirib boradi va hayotiy manzara bilan bog'lab, voqelik darajasini oshiradi. Jumladan, "**Tahadu tahabbu**" ("Bir-biringizga hadyalar berib, do'stlashinglar") hadisi sharhi bo'lgan parchaga e'tibor beraylik:

Do'stlashinglar hadiyalar berishib,  
Bahra topqon xirad atiyasidin.  
Xud jahonda atiyaye bormu  
Yaxshiroq do'stliq hadiyasidin. [1; B.591]

Hadis birinchi misrada keltirilgan, faqat inversiya holatida. Demak, urg'u, avvalo, do'shtlashishga qaratilgan, keyin uning ahamiyati, darajasi ta'kidlangan. Aql egalarining tuhfasini kishiga rohat-u halovat beradi, qalbiga huzur bag'ishlaydi. Ayniqsa, bu tuhfa do'stniki bo'lsa, qadri yana ortadi. Shunday ekan, jahonda do'stlik sovg'asi kabi yaxshi hadya bormikin? "Do'stlik" tushunchasini "hadya"ning turi sifatida izohlash mumkin bo'lsa, keyingi baytdan yana boshqa bir fikrni uqish mumkin: "Dunyoda "do'stlik", yani do'st bo'lishdan yaxshiroq sovg'a bormikan?" Bu — qit'adan chiqadigan zohiriy ma'no. Shu o'rinda "do'st" so'zining ma'nolariga e'tibor qaratamiz: "yaqin o'rtoq, qalin oshna, sirdosh do'st", "mahbuba, ma'shuqa, mehribon yor", "payg'ambar", "Alloh" [2; B.521-522]. Agar do'st deganda ushbu ma'nolarning har birini navbati bilan tushunib, sharhlasak, u holda "tuhfa"ning mohiyati ham, qadr-qimmatini ham, ahamiyati ham ortib boradi. She'rning davomi irfoniy-tasavvufiy jihatdan idrok etilsa, lirik qahramonning asl maqsadi oydinlashadi: Allohning do'stligidan, Uning tuhfasidan yaxshirog'i bo'lmas. "Qur'oni karim"da Yaratganning bir qancha hadyalari haqida xabar beriladi. "Shuaro" surasining 83-oyatida, lirik qahramonning shoir ekanligini nazarga tutsak, mantiqan shu oyat



uning niyatiga mos tushadi: “Ey Robbim, menga hikmat hadya et va meni solihlarga qo’shgin” [7]. Bu — qit’aning botiniy ma’nosi.

Hadis mazmuni ikkinchi baytda keltirilgan qit’alarda avval shoirning hayotiy masala yuzasidan mulohazalari — tezislar bayon qilinib, so’ngra iqtibos sifatida berilgan hadis yordamida fikr rad etib bo’lmas darajada qat’iy xulosalanadi, kuchli dalillanadi. Bu holat 40 ta qit’aning deyarli yarmida kuzatiladi. Jumladan, **“Al-muslimu man salim al-muslimuna min yadihi va lisonihi”** (“Qo’lidan va tilidan musulmonlarga ozor yetmaydigan kishigina haqiqiy musulmondur”) hadisi juda mutanosib shaklda nazm qilingan:

Kim musulmonlig’ aylasa da’vo,  
Chin emas gar fido qilur jonlar.  
Ul musulmondururki, solimdur  
Tili-yu ilgidin musulmonlar. [1; B.587]

Musulmonlik — islom e’tiqodidagi insonning matlabi, lekin quruq da’vo qilish bilan kishi muslim bo’lib qolmaydi yoki so’zi chinligini isbotlash uchun eng shirin jonini fido qilishi ham shart emas. Haqiqiy musulmonlik — qo’lidan va tilidan boshqa bir muslimga ozor bermaslik. Alisher Navoiy musulmon o’z birodaridan ozor chekmasligi sog’lomlik ekanligini qayd etar ekan, hadisda sanalayotgan tushunchalarning o’rnini almashtiradi. Ta’didda “qo’l va til” (ilgi-yu tilidin) shaklida ifoda etilganda ham, vaznga putur yetmasdi. Demak, bu so’zlarning o’rni almashgan holatda baytda joylanishi vazn talabi bilan emas, balki navoiyona mantiq talabi bilan bo’lgan. Qo’l bilan tanaga, til bilan dilga og’riq yetadi. Jismoniy ozordan ko’ra qalbgga, ko’ngilga yetkazilgan ozor xavfliroq. Xalqona ibora bilan aytganda, “Tig’ yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi”. Hadisning hikmatini anglash uchun yana Kalom va hadislarga murojaat qilsak, tildan keluvchi ozorlarning ko’rinishlari haqida kengroq tushunchaga ega bo’lamiz: nafaqa va sadaqa minnati, yolg’on, tuhmat, qo’pol muomala, fitna; so’kishmoq, urushmoq va h.k. Bu til ofatlaridan qalb ozorlanadi, ko’ngil og’riydi, inson sha’ni shikastlanadi. Vaholanki, ko’ngil — Allohning maskani. Demak, banda Haq roziligini istasa, Rasuli akram ummati ichra bo’lishni xohlasa, albatta, bu taqiqqa qat’iy amal qilishi shart. Alisher Navoiy bir g’azalida “Kimki bir ko’ngli buzug’ning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka’ba vayron bo’lsa, obod aylagay” deb bejiz aytmaydi.

“Arba’in”da matni kichik hadislarining uchinchi yoki to’rtinchi misrada keltirilishi ham kuzatiladi. **“Al-va’datu daynun”** (“Va’da — qarzdir”) hadisi sharhida Navoiy “Kimki va’da qilsa, o’sha va’daga vafo qilish shart” degan fikrni bayon qilib, diqqatni hadis mazmuni bilan boyitilgan fikr tomon burib yuboradi va oxirgi misrada e’tirozsiz ado etilishi shart bo’lgan farz amal sifatida baholab, she’rni xulosalaydi: “Va’da — qarz, qarzni ado etish — farz”.

Kimki har kinga va’daye qildi,  
Shart erur va’dag’a vafo qilmoq.  
Va’dakim qilding, o’yladurkim dayn,  
Farzdur qarzni ado qilmoq. [1; B.589]

Va’da va uning adosi haqida ham yana boshqa bir qator hadislar vorid bo’lgan. Bir hadisda va’dani bajarmaslik — munofiqlik belgisi sifatida baholansa, boshqa hadisda va’da qilgan narsani amalga oshirmaslik kishilar orasida adovat paydo qilishi haqida ogohlantiriladi. Hatto oxiratda barcha gunohlar kechirilishi mumkin, ammo banda agar omonat dunyoda kimdandir qarzdor bo’lgan bo’lsa, Alloh qarzdor va haqdor orasiga tushmasligini marhamat qilgan hadisi qudsiylar mavjud. Shu bois Navoiy qarzni ado etishni farz amallar qatorida Haq taolo rizoligi yo’lida ado etilishi shart bo’lgan amallar sirasiga kiritadi. Yana biri shuki, va’da —

lafz, inson lafz qildimi, so‘zining ustidan chiqishi kerak, shundagina lafzi halol, tildan yetadigan gunohlardan forig‘ bo‘ladi.

**“Al-kalimat ut-tayyibatu sadaqatun”** (“Yaxshi so‘z — sadaqadur) hadisi esa qit‘aning to‘rtinchi misrasida daliliy va xulosaviy fikr sifatida iqtibos qilinadi:

Yaxshi so‘z birla hojat ahlin so‘r,  
Bermasang yaxshi to‘madin nafaqa.  
Ne uchunkim rasul qavli bilan  
Yaxshi so‘z bordur o‘ylakim sadaqa. [1; B.593]

Hammaning iqtisodiy ahvoli, turmush tarzi, topish-tutishi birdek emas. Hojatmand kishilar holidan xabar olish musulmonchilik odoblaridandir. Alloh qodir qilsa, ularga moddiy (oziq-ovqat yoki mablag‘) tomondan nafaqa, ehson qilish ham xayrli, ham savobli amallardandir. Bundan tashqari, yaxshi so‘z – shirin muomala, ko‘ngilni ko‘taruvchi, ruhlantiruvchi gap aytish bilan ham sadaqa qilganlik savobiga erishishlari mumkin.

**Xulosa.** Yuqoridagi misollardan ko‘rindiki, Alisher Navoiy hadislarini she‘rda aynan keltirmasdan, ularning ma‘nosini oydinlashtirish, ta‘kid va mantiqiy urg‘u berish, fikriy mundarijasini g‘oyaviy maqsadga moslashtirish, mazmun-mohiyatini chuqurroq ochish, hayotiy xulosalarni dalillash kabi shoirona maqsadlarga mos holatda shakllantirgan va she‘riy kompozitsiyaga uyg‘un tarzda mantiq ipiga tizib, qit‘alar zamiriga singdirgan. Shunga ko‘ra, har bir qit‘ani Navoiy ijodiy tafakkuri mahsuli sifatida, ham diniy, ham ma‘rifiy ahamiyat kasb etgan alohida mukammal asarlar tarzida maydonga kelgan nazm durdonasi deya baholanishi mumkin. Hazrat Navoiy nafaqat bu asari, balki butun ijodi bilan uchlik ilmlar uchligini chuqur egallagan yetuk donishmand, nuqtadon alloma, faqih hamda balog‘at va fasohat sohibi bo‘lgan shoir sifatida fikr yuritadi. Demak, Navoiy ilohiy ilmlar uchligini – ilmi laduniy, naqliy va aqliy bilimlar; ilmi balog‘a – ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badi‘ hamda ilmi aruz va ilmi qofiyani chuqur egallagan, idrok etgan va butun ijodida uyg‘unlashtira olgan va shu jihati bilan jahon adabiyotida benazir ijodkor sifatida e‘tirof etilgan. Alisher Navoiy hayotda ham, ijodda ham surat va siyrat uyg‘unligiga erisha olgan, muxlislarini, millatdoshlarini, butun zamondoshlarini, hatto umuminsoniyatni odamiylik ilmini puxta egallashga da‘vat eta olgan nodiri davrondir. Buyuk xizmatlari bilan u o‘z nomini manguqlikka muhrlay oldi va uning saboqlari asrlar osha avlodlar uchun hayot maktabi bo‘lib qolaveradi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Arba‘in. Toshkent, 2011.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1-4-tomlar. – Toshkent, “FAN” nashriyoti, 1983-1985-yillar.
3. “Arba‘in”ning nasriy bayoni va taxriji. Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husaynixon Yahyo Abdulmajid. - *islom.uz*
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. (1-jild). Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – Toshkent, 1991.
5. Pulatova Malohat. Hadislarda axloqiy qarashlar. /“Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 30-sentabr, 2021-yil.
6. Бадийй адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. – Тошкент, 2010.
7. Qur‘oni karim ma‘nolari tarjimasi. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur. - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).